



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

**“O‘TKAN KUNLAR” HAMDA “ANNA KARENINA” ASARLARINING IKS-FEMIK
BIRLIKLAR TARJIMASI MUAMMOLARI**

Xurshida Kadirova*Dotsent,**Alisher Navoiy nimidagi ToshDO‘TAU**Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: evfemizm, disfemizm, ortofemizm, iks-femizm, tarjima, badiiy matn.

Annotatsiya: Maqolada badiiy asarlarning tarjima qilinishi qiyin bo‘lgan birliklari evfemizm va disfemizmlarni rus tilidan o‘zbek tiliga va o‘zbek tilidan rus tiliga tarjima qilishda tarjimonning o‘ziga xos yondashuvlari xususida so‘z boradi. Taqiqotning maqsadi mazkur birliklarni tarjima qilishda muayyan ilmiy xulosalarga tayanish lozimligini asoslash, buning uchun tarjima jarayonida evfemik va disfemik birliklarning haqiqatdan uzoqlashishini misollar yordamida isbotlash vazifasini amalga oshirish hisoblanadi. Muallif o‘z mulohazalarini qiyosiy, tahliliy, tasnifiy, tavsifiy usullar bilan bayon etib, bu birliklarning belgisi asosida rus va o‘zbek tillarining tipologik xususiyati haqida bayon etgan. Maqola mavzusi ikki buyuk asar “O‘tkan kunlar” va “Anna Karenina”dan olingan misollar va ularning tarjimasi orqali yoritib berilgan. Shuningdek, olingan natijalar asosida ilmiy xulosa chiqarilgan.

**PROBLEMS OF TRANSLATING X-PHEMIC UNITS IN THE WORKS “PAST DAYS”
AND “ANNA KARENINA”**

Khurshida Kadirova*Associate Professor,**Tashkent State University of Uzbek Language and Literature**named after Alisher Navoi**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: euphemism, dysphemism, orphemism, x-

Abstract: The article talks about the specific approaches of the translator when translating euphemisms and dysphemisms, which complicate the translation of units

femism, translation, literary tex.

of literary works, from Russian into Uzbek and from Uzbek into Russian. The purpose of the study is to justify the need to rely on certain scientific conclusions when translating these units, and to do this, to prove with the help of examples that euphemistic and dysphemic units are far from reality in the translation process. The author expressed his opinion using comparative, analytical, classification, descriptive methods and described the typological characteristics of the Russian and Uzbek languages based on the characteristics of these units. The topic of the article is explained with examples from two great works, "Past Days" and "Anna Karenina" and their translation. Also, based on the results obtained, a scientific conclusion was made.

ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА Х-ФЕМИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ «МИНУВШИЕ ДНИ» И «АННА КАРЕНИНА»

Хуриида Кадирова

Доцент,

Ташкентский государственный университет

узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:

эвфемизм, дисфемизм, орфемизм, икс-фемизм, перевод, художественный текст.

Аннотация:

В статье говорится о специфических подходах переводчика при переводе эвфемизмов и дисфемизмов, затрудняющих перевод единиц художественных произведений, с русского на узбекский и с узбекского на русский язык. Цель исследования – обосновать необходимость опираться на те или иные научные выводы при переводе этих единиц, а для этого – доказать с помощью примеров, что эвфемистические и дисфемические единицы далеки от действительности в процессе перевода. Автор выразил свое мнение сравнительным, аналитическим, классификационным, описательным методами и описал типологическую характеристику русского и узбекского языков на основе признаков этих единиц. Тема статьи поясняется примерами из двух великих произведений «Минувшие дни» и «Анна Каренина» и их переводом. Также на основании полученных результатов был сделан научный вывод.

KIRISH

Mohiyatan, aksariyat adabiy soʻzlar, baʼzi bir sabablarga koʻra, his-tuygʻularni biror darajaga oʻzgartiradigan va qadr-qimmatni yo oshiradigan, yoki tushiradigan birliklar iks-femizmlar hisoblanadi. Shuning uchun, bu hodisani pragmatikaning asosiy omili, konnotativ mohiyat sifatida batafsil koʻrib chiqib baho berish lozim. Birinchi marta nominativ birlikning

“evfemiya/disfemiya” o‘qi bo‘yicha matnli ambivalentlik¹ muammosi K.Allan va K.Burridge tomonidan polimorfik (turlararo) sinonimiya deb ataladigan narsa doirasida ko‘tarilgan². Bu sinonimiyaning bir turi bo‘lib, muloqot ishtirokchilarining matni tarkibiga, shuningdek, muloqot jarayonida qo‘llaniladigan til turi (dialekt, jargon)ga qarab turli xil konnotativ ma‘nolarni anglatadi. Ular konnotatsiyaning neytral, ijobiy va salbiy turlarini o‘z ichiga oladi; konnotativ jihatdan o‘zgaruvchan sinonimlarning turlari sifatida mos ravishda ortofemizm, evfemizm va disfemizmlar hisoblanadi. Evfemizmlar evfonik va muloyim iboralar sifatida, disfemizmlar – qo‘pol va haqoratli iboralar sifatida, ortofemizmlar – to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda sifatida; iks-femiya ular tomonidan ushbu uchta hodisani umumlashtiruvchi giperonim atama³ sifatida ajralib turadi⁴. Shuni aytish mumkinki, qaysi so‘z yoki iborani evfemizm yoki disfemizm deb hisoblash mumkinligi borasida yakdillik kuzatilmaydi. Umuman olganda, ular nutqiy hodisa sifatida istalgan so‘zni biror so‘z yoki ibora vositasida yopish uchun xizmat qilar ekan, kommunikatsiya a‘zolarida salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqarish/chiqarmaslik uchun yoki haqiqatni, ayrim faktlarni niqob ostiga olish/olmaslik uchun istalgan (adabiy/noadabiy, ijobiy/salbiy) so‘zdan foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun, bizning nazarimizda “iks-femizm” atamasi oraliqdagi birlik “ortofemizm”ga nisbatan ham qo‘llanilishi noo‘rin. Ortofema hech qanday munosabatni o‘zida aks ettirmas ekan, uni konnotativ bo‘yoqli birliklar qatorida mavqega ega emasligi bunga asos bo‘la oladi. “Iks” (x) esa “noma‘lum”, ya‘ni yo salbiy, yo ijobiy munosabatni o‘zida tashuvchi evfemizm va disfemizm atamalarining jamlanmasiga nisbatan qo‘llanilishi maqsadga muvofiq. Tadqiqot ishida “x-femizm” termini ana shu yondashuv asosida qo‘llanilgan. Qolaversa, so‘nggi yillarda tadqiqotchilarning iks-femiya muammolariga nisbatan qiziqishi ortib, u ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari uchun obyekt sifatida ommalashmoqda. Bunda evfemizm⁵ va disfemizm⁶lar tarjimai masalalari bilan bog‘liq ishlar alohida o‘rin egallaydi. Ortofemizmlar 0 ko‘rsatkichga ega. Masalan: “Он не мог раскaiваться теперь в том, в чем он раскaiвался когда-то лет шесть тому назад, когда он сделал первую **неверность** жене.” Bu birlik tarjima davriga qadar vaqt mobaynida evfemik ta‘sirini yo‘qotgan bo‘lib, hatto tarjima matnida tushib ham qolgan. U hech qanday konnotativ ma‘no kasb etmaydi.

TADQIQOTNING USULLARI

Badiiy matnlarda iks-femizmlar badiiylilik uchun, qahramonlarni tasvirlash, yorqin badiiy obrazlarni yaratish uchun stilistik vazifani bajaradi. Boshqa sohalarida esa kommunikatsiyaning keng tarqalgan hodisasi sifatida, fanda va ommaviy axborot vositalarida ishlov berilgan, omma

¹ Ambivalentlik (lot. ambo – “ikkalasi” va lot. valentia – “kuch” so‘zlaridan) – biror narsaga munosabatning ikkitomonlamaligi (bo‘laklarga ajralishi), xususan, biror voqelikning odamda bir vaqtning o‘zida ikki qarama-qarshi hislarni uyg‘otuvchi kechinmalarni ifodalovchi ikkilanish.

² Allan, Burridge 1988 — Allan K., Burridge K. Euphemism, dysphemism and cross-varietal synonymy. La Trobe working papers in linguistics. 1988, (1): 1–16.

³ Allan, Burridge 2006 — Allan K., Burridge K. Forbidden words: Taboo and the censoring of language. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.

⁴ Фомина Т.А., Дружинин А.С. Контекстуально обусловленное номинативное варьирование на оси эвфемия/дисфемия. Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. 2023, 20 (1): 137–155. <https://doi.org/10.21638/spbu09.2023.108>

⁵ Мораева А.В., Грекова О.М. Особенности и трудности перевода эвфемизмов (на материале новостных статей BBC). // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. 2018. Т. 4, №4. С.90-102. DOI: 10.18413/2313-8912-2018-4-4-0-10

⁶ Баландина М.И. Проблема перевода аргю и дисфемизмов в двуязычной ситуации. Автореф...дисс. канд. фил. наук. 10.02.20. – Москва, 2000. – С.28. <https://cheloveknauka.com/problema-perevoda-argo-i-disfemizmov-v-dvuyazychnoy-situatsii>

uchun tushunarli bo'lgan evfemizmlar yoki disfemizmlar qo'llaniladi. Faqat badiiy adabiyot maydonigina ularni xolis talqin va tavsif etish uchun keng imkon beradi.

Davrining mashhur felyetonchisi sifatida tanilgan Abdulla Qodiriyning asarlari ta'sirchan ifoda vositalaridan tarkib topgan. Milliy mentalitet ifodasida evfemizmgga bo'lgan ehtiyojdan yozuvchining voqelik yoki shaxsni salbiy bo'yoq bilan berish, haqiqatni ro'y-rost tasvirlash istagi ustun kelib, qo'pol, noo'rin til birliklari bilan o'sha zamon siyosati, nomaqbul kishilari tanqid ostiga olinadi. Bunday yondashuv orqali ularga kuchli zarba beriladi, axloqiy mezonlar bilan muvofiqlashishga – tarbiyaga chaqiriladi. Adibning bunday harakati o'zi va millat uchun qanday oqibatlariga olib kelganiligi ma'lum.

Demak, so'zdan foydalanishning o'z me'yorlari – vaqti, chegarasi, madaniy mezonlari bo'lib, u millat ruhi (andisha, hayo, tarbiya)ni o'zida aks ettiradi. Yevropa xalqi ongida jamiyat fikri darajasi o'z manfaatlaridan past ekanligi nutq birliklari orqali, avvalo, “o'zini hurmat qilish” fenomenida ko'zga tashlanadi. Sharqona madaniyat singdirilgan o'zbek nutqida esa jamiyat ichida o'z o'rniga ega bo'lish uchun boshqalarni hurmat qilish bilan bog'liq iks-femik birliklar yuzaga kelgan. Shuning uchun, disfemizmlarni o'zbek matbuotidagi faqat Kalvak maxzum, Toshpo'lat tajang kabi to'qima obrazlarning tilidagina uchratish mumkin.

NATIJALAR

Badiiy matnda qo'llanadigan disfemizmlarning xususiyatlaridan biri o'quvchida salbiy taassurot uyg'otish bo'lsa, ikkinchi tomondan, qahramonlar ruhiyatidagi salbiy munosabatni namoyon qilishdir. Shuning uchun disfemizmlar muallif yoki personaj nutqiga xos bo'lishi mumkin. Quyidagi jumlada *cho'log' supurgi* ifodasi orqali muallifning salbiy munosabati ifodalangan. Ammo bunda muallif munosabati Otabek munosabati asosiga qurilgan: *Otabek bu cho'log' supurgini tanidi va uning istehzolarini payqadi*. (O'tkan kunlar – 120).

“Anna Karenina” asari ham rus adabiyoti uchun alohida ahamiyatga ega, unda “Tolstoyning jamiyat hayotida kechayotgan noxush jarayonlar haqidagi iztirobli o'ylari aks etdi”⁷. Adibning oila masalasiga oid voqealarga bo'lgan munosabati qahramonlar nutqiga ko'chib, muallif nutqi qahramon kayfiyati, narsa-hodisaga bo'lgan munosabati asosida shakllanadi, quyidagi misol buning yaqqol dalilidir: *Брат Николай был родной и старший брат Константина Левина и одноутробный брат Сергея Ивановича, погибший человек, промотавший большую долю своего состояния, вращавшийся в самом странном и дурном обществе и поспоривший с братьями*. (Анна Каренина – 35).

MUHOAKAMA

“Anna Karenina” asari Mirzakalon Ismoilij tarjimasi bilan 1980-yilda G'ofur G'ulom nomidagi “Adabiyot va san'at” nashriyoti tomonidan nashr etilgan edi. Oradan 37 yil o'tib, 2017-yilda “Yangi asr avlodi” nashriyoti tomonidan “ma'naviy kamoloti uchun zarur deb bilgan kitob ixlosmandlari e'tiboriga qariyb 40 yillik tanaffusdan so'ng havola”⁸ sifatida nashr etiladi. Ko'rinadiki, bugungi kunga qadar mazkur asar faqat bir marotaba tarjima qilingan. Tarjimashunoslik sohasi u qadar taraqqiy etmagan, tarjima mezonlari tadqiq etilmagan, milliy-mafkuraviy, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar tarjima tili vakilariga ham o'z ta'sirini o'tkazgan bir paytda qilingan bu tarjima “O'tkan kunlar” asarining tarjimalari darajasidek emasligining guvohi

⁷ «Тафаккур жавҳари». Тошкент, «Фан» нашриёти. 2010 (Тўпловчи ва сўз боши муаллифи, ф.ф.д.

И.М.Ғаниев) <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/lev-tolstoy-anna-karenina-ostiga-chizilgan-parchalar.html>

⁸ Толстой Л. Анна Каренина: роман. Лев Толстой / Рус тилидан Мирзакалон Исмоилий таржимаси. Биринчи китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. – 704 б.

https://fileskachat.com/view/96397_e8f4b32d6836c2053efde588ee38826c.html

bo'lamiz. Ayniqsa, mental xususiyatni o'zida tashuvchi iks-femik birliklar Mirzakalon Ismoilning tarjimasida ortofemik birlikka aylanadi:

Он выпрямил грудь, вынул папироску, закурил, пыхнул два раза, бросил ее в перламутровую раковину-пепельницу, быстрыми шагами прошел мрачную гостиную и отворил другую дверь, в спальню жены. (Анна Каренина – 22)

Stepan Arkadich ko'kragini kerib, cho'ntagidan papiros chiqarib chekdi, ikki marta burqsitgandan so'ng uni sadaf chig'anoq kuldonga tashladida, shaxtam odim bilan qorong'i mehmonxonadan o'tib, xotining yotoqxonasiga kiriladigan ikkinchi eshikni ochdi. (Anna Karenina – 14)

Мрачный so'zi manba tilda ko'chim sifatida namon bo'lmoqda. Bunda g'amgin, qayg'uli, mahzun, mungli, hazin, g'amnok, hasratli⁹ birliklari disfemik muqobil bo'lishi mumkin.

Tarjimonning qo'llagan iks-femik birliklari ham asliyatdagi birliklar ma'nosiga teng kelmaydi. Masalan, *шпилька* so'zining lug'aviy (*заколка, булавка, каблук, спица, игла, вилка, итифт, шелчок, подковырка, невидимка, ...*) ma'nolaridan tashqari rus tilida bir necha ko'chmlari (masalan, *сарказм, ирония, острота, издевательство, оскорбление, унижение, сатира, карикатура, подкол*¹⁰ kabi ma'nolari) bo'lib, tarjimon hammasini ham o'sha ma'no bilan o'gira olmagan:

1. *Он прочел и другую статью, финансовую, в которой упоминалось о Бентаме и Милле и подпускались тонкие шпильки министерству.* (Анна Каренина – 21)

Stepan Arkadich moliya masalalaridan bahs etuvchi yana boshqa maqolalarni ham o'qidi; bunda Bentam va Mille tilga olingan, ministrlikka ta'na toshi otilgan edi. (Anna Karenina – 11)

Bunda *тонкие шпильки* anonim ma'lumot ma'nosida kelib, "yumaloq xat", "qistirma gaplar", "malomat toshlari", "nozik gaplar", "piching" kabi birliklar muqobil bo'la olishi mumkin. "Ta'na" tushunchasi evfemik xususiyatni pasaytiradi. Chunki u, shundoq ham, ta'na ekanligi ma'lum. Evfemik ko'chimning vazifasi qayta nomlash hisoblanadi. Tarjimada buni aks ettirish muhim masala.

2. *Со свойственной ему быстротою соображения он понимал значение всякой шпильки: от кого и на кого и по какому случаю она была направлена, и это, как всегда, доставляло ему некоторое удовольствие.* (Анна Каренина – 21)

U o'zining o'tkir farosati orqasida har qanday imo-ishoraning ma'nosini: kim tosh otyapti, kimning sha'niga tosh otilyapti, nima munosabat bilan shunday qilinyapti – buni darhol payqab olar va bu narsa uni har vaqt birmuncha mamnun qilardi. (Anna Karenina – 11)

Bu yerda *шпилька* so'zining evfemik ma'nosi, gapda qo'llangan tosh otish leksik qo'shilmasi bilan muayyan darajada yetkazib berilgan. U "imo-ishora" o'girmasining ma'nosini to'ldirish uchun xizmat qilgan. Bu birlik ham "izoh", "malomat", "piching", "qistirma" kabi birliklariga almashtirganda yada yaqinroq evfemiyani hosil qilish mumkin edi: *U o'ziga xos o'tkir zehni bilan hap bir qistirmaning mohiyatini: kimdan va kimga, nima sababdan yo'llanganini tushunardi, bu esa, har doimgidek, unga qandaydir zavq berardi.*

Iks-femizmlar tarjima qilish qiyin bo'lgan stilistik bo'yoqli leksik hodisalar sirasiga mansub, o'girish jarayonida tarjimondan nafaqat chet tilini bilishi, balki manba til egalarining madaniyati va milliy o'ziga xosligi bilan tanish bo'lishi, shuningdek, tagma'noning ahamiyatini to'g'ri baholay olishi ham talab etiladi. Denotativ nazariyaga ko'ra, asosan, tarjima quyidagicha amalga oshiriladi: asl matnni yoki uning qismini idrok etish jarayonida tarjimon har bir leksik birlikning ma'nosini, ular o'rtasidagi aloqani tahlil qiladi, so'ngra har bir birlikning qaysi ma'noda ifoda etilayotganini anglaydi. Natijada, tarjima qilinayotgan manbaning to'liq tasvirini tasavvur qiladi va u buni tarjima tili vositalari bilan tavsiflaydi. Boshqacha aytganda, tarjimon

⁹ <https://sinonim.uz/word/gamgin/>

¹⁰ <https://kartaslov.ru>

matn axborotini o'z laboratoriyasida mavhumlashtiradi va faqat boshqa tilda yetkazishi mumkin bo'lgan vaziyatni e'tiborga oladi. V.N.Komissarov¹¹ ham tarjima jarayonida madaniy, tarixiy xususiyatlarni ochib berishdagi qiyinchiliklar tufayli haqiqatni ifoda etishda yoki ifoda shaklini yaratishda yo'qotishlar bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan edi.

“O'tkan kunlar” asarining bir necha tillarga tarjima qilingani, har bir tilda o'ziga xos talqin etilgani ma'lum. Masalan, ““Amerika ovozi”ning aytishicha, nemis tiliga o'girilgan kitobga “Toshkentlik oshiqlar” (“Die liebenden von Tashkent”) deb nom berilgan.”¹² Bunda tarjimon muallif uslubini qayta kodlashga uringan. U nafaqat asarning milliy ruhini, balki tarjima tilining ham hayot tarzi, an'analari, ijtimoiy-axloqiy qadriyatlariga moslash kabi yondashuvga amal qilgan. Ba'zan qahramon nutqini shu yondashuvga asoslanib tarjima qilinganda, ayrim xatoliklarga duch kelinadi. M.J.Choriyeva ““O'tkan kunlar” romanining tarjima variantlarida milliylik ifodasi va o'girmalardagi tafovut va o'xshashliklar” nomli o'z maqolasida tarjimonlarning ““O'tkan kunlar” romanida tarixiylikni belgilovchi tarixiy-arxaiik tushunchalarda ko'p uchraydigan unvon, kasb-korga tegishli so'zlar va realiyalar (milliy xos so'zlar) tarjimasi”¹³ borasidagi ishlari yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bildirgan. Unda “rus tilidan ingliz tiliga K.Yermakova tarjimasi”ni hamda “O'zbek tilidan ingliz tiliga I.To'xtasinov tarjimasi”ni tahlil qilib, K.Yermakova “chilim” so'zini o'z holicha qo'llaganini, I.To'xtasinov uning tarjimasini, ya'ni “kalian” so'zini qo'llaganini ta'kidlaydi. Rossiyada kalyan 1991-yilgacha mashhur bo'lmagan, chor Rossiyasida esa, agar ular shu tarzda chekilsa, ko'proq mehmonlarning ko'nglini olish uchun bo'lgan. SSSR parchalanishi bilan hamma narsa o'zgardi, Misr va Turkiyadan keltirilgan arzon, yorqin kalyanlar darhol boylik belgisiga aylandi.¹⁴ Shu ma'noda, tarjimonlarning yondashuvi birliklarning pragmatik, lingvopragmatik, lingvomadaniy ma'no kasb etishi tarixiy tipologik omillar asosida bo'lishi muhim ekanligi ma'lum bo'ladi.

“O'tkan kunlar” rus tiliga bir necha bor tarjima qilingan bo'lib, birinchisi 1958-yil L.Bat va V.Smirnovalar tomonidan, ikkinchisi 2009-yilda Muhammadnodir Safarov tomonidan amalga oshirilgan. Aytish kerakki, asar qahramonlarining iks-femik birliklari ikkala tarjimonda turlicha aks etadi. Masalan, badiiy matnda qahramonlar nutqiga xos disfemizmilar faqat norozilik sifatida yoki kommunikatsiyada manipulyatsiya qilish vositasi sifatida salbiy munosabatni, ba'zan esa ularning ma'naviy tubanliklarini shu munosabat bilan uyg'un ifodalash vazifasini bajaradi:

Kumushning go'zallik ta'rifini g'oyibona eshitib, og'zining suvi kelguchi xotinliq va xotinsiz orzumandlar “yotib qolg'uncha, otib qol!” so'ziga amal qilib, qutidornikiga sovchilarni turnaqator yubora boshlag'an edilar. (O'tkan kunlar – 113)

Mazkur iboralarning tarkibiy qismlari asosiy ma'nolarini yo'qotib, nutqiy vaziyatning yangi umumiy ma'nosiga singib ketgan. Subyektiv hislarni yetkazish uchun ifodalanayotgan bu disfemik xarakterdagi ko'chim (*yotib qolg'uncha, otib qol – попытка не пытка а спрос не беда*) rus tilida o'z ekvivalentiga ega, *og'zining suvi kelmoq* esa bu ro'yhatga kiritilmay, yozuvchining o'z iborasi, nutqiy vaziyatda paydo bo'lgan disfemizm sifatida qo'llaniladi. Gapga teng predikativ bu ibora 1958-yilda ham, 2009-yilda ham amalga oshirilgan tarjimada tushib qoladi va boshqa birliklar bilan o'giriladi:

1958: *Молва о красоте Кумюш соблазняла многих – и холостых и женатых, – и руководствуясь поговоркой “попытка не пытка а спрос не беда”, сваты один за другим журавлиной цепочкой потянулись в дом Кутидора. (Минувшие дни – 212)*

¹¹ Комиссаров В.Н. Теория переводов (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высш.шк., 1990. – 253 с.

¹² <https://yuz.uz/uz/news/otkan-kunlar-romaniga-nemislar-yangi-nom-berishdi>

¹³ Choriyeva, Muxlisa Jumamurodovna “O'tkan kunlar” romanining tarjima variantlarida milliylik ifodasi va o'girmalardagi tafovut va o'xshashliklar // ORIENSS. 2021. № Special Issue 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tkan-kunlar-romanining-tarjima-variantlarida-milliylik-ifoda-si-va-o-girmalardagi-tafovut-va-o-xshashliklar>

¹⁴ <https://smokepride.ru/articles/istoriya-kalyana>

2009: Молва о красоте Кумуша **отняла покой** у многих – и холостых и женатых, – и руководствуясь поговоркой “**попытка – не пытка, а спрос – не беда**”, сваты один за другим **журавлиным клином потянулись** в дом Кутидора. (Минувшие дни – 230)

Bu o'rinda birinchi tarjima asliyat nutqiy birligi uchun muayyan darajada semantik adekvat muqobil ekanligini ko'rish mumkin. Zero, manba tildagi birlik – *соблазняла* disfemik xarakterga ega bo'lib, go'yo Kumush atrofida xiralashayotgan sovchilar o'ljasiga ishtiyoqmand “it”ga o'xshatiladi.

“Соблазнить:

1. Прельстить, побудить, вызвать желание что-н. сделать.

“Соблазнить кого-н. выгодой”

2. Обольстить, развратить.

“Соблазнить девушку”

Перевести “соблазнить” на узбекский: *yo'ldan ozdirmoq*”¹⁵.

Shu o'rinda semantik nuqtai nazardan A.N.Rezanovanning sof (qotib qolgan) disfemizmlarni va kontekstual shartli disfemizmlarni ajratganini yodga olish zarur.¹⁶ Kontekstual shartli disfemizmlarga faqat matnning muayyan sharoitida disfemizm vazifasini bajaradigan har qanday leksik birliklar mansub bo'la oladi. Adibning bu iboralari Mahmud Sattorning 2011-yilda nashr etilgan “O'zbekning gapi qiziq”¹⁷ deb nomlangan maqol va iboralar to'plamida ham, Abdug'ofir Mamatovning “Frazеологик birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi”¹⁸ da ham uchramaydi. Shuning uchun, iboraning hali qotib ulgurmagani, rus tilida mavjud (*слюни потекли*) ushbu ko'rinishi, adib nutqida ibora sifatida kelib, matn qurshovida disfemik vazifa bajarmoqda. Disfemistik frazeologik birlik ma'nosining konnotativ tomoni, tavsiflangan obyektini past baholab, ularni boshqa til birliklari fonidan ajratib turishi bilan xarakterlanadi. Chunki bu xunuk odat ko'proq suqlanayotgan odamdagidek hayvoniy xususiyatni ko'z oldimizda gavdalanitiradi. Ikkinchi tarjimada esa bu birlik evfemalashtirilganining guvohi bo'lamiz.

Frazeologizmining bir komponenti *it* so'zi bo'lganda, uning disfemik vaziyat uyg'otishi boshqa tillarda ham mavjud. M.S.Pestova frazeologik birliklarning *dog* (собака – it) etimologik komponenti hech qachon ijobiy qabul qilinmagan – *to lead a dog's life* (*вести собачью жизнь* – *itning kunini ko'rmoq*), *to go to the dogs* (*пойти к собакам* – *itlarga ergashmoq*), *to die like a dog* (*умереть как собака* – *itdek o'lmoq*), *to throw it to the dogs* (*бросить его собакам* – *itlarga yem qilmoq*),” deydi.¹⁹ Robert Xedrikson o'zining so'z va iboralarning kelib chiqish ensiklopediyasida itlar uy hayvonlari hisoblanmasligini, ularni yeyilmagan dasturxon qoldiqlari bilan boqishganligini aytadi. Itning kunini ko'rish, itdek o'lish dastlab yaxshi bo'lmagan turmush tarzini olib borishni anglatishi ayrim manbalarda uchraydi.²⁰

Tarjimada qo'llanilgan *попытка – не пытка, а спрос – не беда* iborasi esa o'zbek tilidagi disfemik vaziyatni yumshatganini ko'rishimiz mumkin. Bu holatni ikkila tarjimonning ham o'zbek tiliga bo'lgan ehtiromi sifatida baholash lozim: **yotish, otish** mazmuni bilan bog'liq semalarning aksariyati salbiy ottenkaga egaligi inobatga olinsa, iboraning umumiy ma'nosi shu semalar asosida salbiy belgiga ega bo'ladi va muallif maqsadi – Kumush munosabati yuzaga chiqadi. Berilgan rus tilidagi iboraning hech bir komponentida salbiy bo'yoqli leksema

¹⁵ <https://www.google.com>

¹⁶ Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф. дис. ... канд. филол. наук – СПб., 2008. – С. 8-9.

¹⁷ Махмуд Саттор. Ўзбекнинг гапи кизик. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2011. – 148 б.

¹⁸ Маматов А., Болтева Б. Фразеологик birliklarning lingvomadaniy va semantik-pragmatik tadqiqi. Монография. – Тошкент: 2018.

¹⁹ Пестова М.С. Эмотивность и оценочность как основные компоненты коннотации дисфемистичных фразеологических единиц, построенных на гиперболе, в английском и русском языках. <https://cyberleninka.ru/article/n/emotivnost-i-otsenochnost-kak-osnovnye-komponenty-konnotatsii-disfemistichnyh-frazeologicheskikh-edinit-postroennyh-na-giperbole-v/viewer>

²⁰ The QPB Encyclopedia of Word and Phrase Origin. Robert Hedrickson. Facts on File.

uchramaydi. Bu ortofemik birlik o'zbek tilining manfiy qutbdagi kayfiyatini, badxulq xarakterini yopishga xizmat qiladi va matn qurshovida o'zbek milliy xakteri haqidagi o'zga til vakilining tasavvuri minusga ketmaydi.

Demak, frazeologizmlarning umumiy ma'nosiga ta'sir etuvchi komponentlaridagi odam a'zolari va hayvon, tabiat bilan bog'liq semalarning aksariyati ko'p tillarda bir-biriga yaqin ma'nolarda idrok etilib, ularning nutqda konnotativ vazifa bajarishi ham deyarli bir xil deyish mumkin. Faqat mutarjim buni his qila olishi muhim masala.

Uchinchi iks-femik ma'noli **turnaqator** so'zi tarjimalarda ikki xil nutqiy vaziyatni yuzaga keltirgan.

Qutidornikiga sovchilarni turnaqator yubora boshlag'an edilar	
1958	2009
<i>сваты один за другим журавлиной цепочкой потянулись в дом Кутидора</i>	<i>сваты один за другим журавлиным клином потянулись в дом Кутидора</i>

Bunda *журавлиная цепочка* yoki *журавлиный клин* birligi ikkala tarjimada ham leksik jihatdan to'g'ri qo'llanilgan bo'lsada, konnotativ iks-femik ma'noni bermaydi. Asar muallifi *turnaqator* so'zini sovchilarning ko'lamiga ishora qilgan bo'lsa, tarjimonlar "turnaqator"ning shaklini tasviriy ifodalaydi. Biroq bu vaziyatni *потянулись* ifodasi me'yorlashtiradi. Ya'ni sovchilarning ko'pligi natijasida qator cho'zilgani, miqdoriy belgisi oshgani yuzaga chiqadi.

Asliyat		Tarjima			
		1958		2009	
evfemizm	disfemizm	evfemizm	disfemizm	evfemizm	disfemizm
	<i>og'zining suvi kelguchi</i>		<i>соблазняла</i>	<i>отняла покой</i>	
	<i>yotib qolg'uncha, otib qol</i>	<i>попытка не пытка а спрос не беда</i>		<i>попытка не пытка а спрос не беда</i>	
turnaqator		<i>журавлиной цепочкой потянулись</i>		<i>журавлиным клином потянулись</i>	

Demak, gapdagi 3 ta iks-femik birlik tarjimada o'zni almashgani ma'lum bo'ladi. Xususan,

Asliyat	Tarjima	
	1958	2009
disfemizm	disfemizm	evfemizm
disfemizm	evfemizm	evfemizm
evfemizm	evfemizm	evfemizm

Ko'rinadiki, manba tili tarjima tiliga ko'proq evfemik birliklar bilan tarjima qilinib, bunda turli usullardan foydalanilgan va nutqiy vaziyat yumshatilagan.

"Anna Karenina"ning tarjimasida esa quyidagi holatni kuzatish mumkin: *Ясно он никогда не обдумывал этого вопроса, но смутно ему представлялось, что жена давно догадывается, что он не верен ей, смотрит на это сквозь пальцы.* (Анна Каренина – 18).

Bu narsa ustida u hech mahal durustroq o'ylab ko'rgan bo'lmasa hamki, uning vafosizligini xotini qachonlardan beri payqab yurganligini, lekin bunga parvo qilmaganligini sal-pal sezardi. (Анна Каренина – 6)

1. Mohiyatan *верный* ("sodiq" ma'nosida) birligi bugungi kunda evfemik ma'nosini yo'qotgan birliklar sirasiga kiradi. Lekin o'z davrida evfemik xususiyat kasb etgan. Lug'aviy jihatdan tarjimada to'g'ri qo'llanilgan, nutq vaziyati nuqtai nazaridan evfemik muhit yaratgani bilan, qayta nomlanmagan, shunchaki anglashilgan narsaning yo'q ekanligiga ishora qiluvchi


birlik sifatida to'g'ridan-to'g'ri o'g'irilgan:



Bu o'rinda bir necha ortofemik xususiyatga ega so'zlarni qo'llash maqsadli til uchun xos. Masalan, *fidoyi emas*, *halol emas*, *samimiy emas* kabi, shuningdek *xiyonatkor* tushunchasi ham. Modomiki, asar emotivligini saqlash uchun iks-femik birliklarni maksimal darajada iks-femik birliklar bilan tarjima qilish maqsadi oldimizda turar ekan, adekvat ko'chim tanlash, buning uchun tarjima tili resursidan iks-femik muqobil izlash vazifasi muhim masala hisoblanadi. Masalan, "oyoq olishi", "egri yurishi", "bejo harakati", "yo'ldan ozishi" kabi. Lekin ko'chimlar mazkur matn tashqarisida boshqa evfemik tusga kirishini ham inobatga olish zarur.

2. O'zbekcha gapda mavjud kesim (*представлялось* – *sezardi*) noto'g'ri tarjima qilinganligi sababli *смутно* so'zi *sal pal* birligi bilan o'g'iriladi. Zero, *смутно* jonli nutqda *тускло*, *мрачно*, *тревожно*, *зыбко*, *слепо*, *пасмурно*, *запутанно* kabi salbiy bo'yoqlarga egaligi ma'lum. Bunda so'zlovchi (qahramon) yoqimsiz vaziyatni tasavvur qilayotgani, rus tilidagi pragmatik vaziyatni tarjimon ko'zdan qochirayotganligini ta'kidlash joiz. Uning *sal pal* birligi *невнятно*, *неопределенно*, *неясно*, *слабо* kabi sinonimik qatorlariga muqobil bo'la oladi. Ammo iks-femik vaziyatni bera olmaydi. Bu o'rinda ruscha birlikning *тревожно*, *беспокойно* ma'nolari salbiy nisbat uchun foydalanishga qulay deyish mumkin. Nutq egasining tasavvuri ana shunday noxush ekanligi manba tilida o'z aksini topgan.

3. Tarjimon *смотрит на это сквозь пальцы* iborasini *parvo qilmagan* birligi bilan o'g'irib, manba til emotiv xususiyatini yo'qotadi. Parvo qilmaslik ixtiyoriy ravishda sodir bo'ladigan holat bo'lib, aslyatda majburiyat, yomon oqibatlarining oldini olish maqsadida amalga oshirilgan vaziyat haqida so'z bormoqda. Qolaversa, bu iboraning o'zbek tilidagi muqobili (*ko'z yumadi*) ana shu mazmunni yuzaga chiqarishga qodir. Bu tarjimadagi faqat iks-femik birliklarni ajratib tahlil qilinganda, adekvat va noadekvat tarjima belgisiga ko'ra quyidagi tasnifni amalga oshirish mumkin:



Demak, bu birliklar quyidagicha tarjima qilinganda iks-femik vaziyat saqlanishi mumkin edi:

Noadekvat tarjima	Adekvat tarjima
<i>не верен</i>	

Tarjimon: vafosizlik qilishi	Bizningcha: egri oyoq olishi/qing'ir yurishi
смутно	
Tarjimon: sal pal	Bizningcha: zo'rg'a/g'ira-shira/zaif/g'amnok
смотри на это сквозь пальцы	
Tarjimon: parvo qilmaydi	Bizningcha: ko'z yumadi/barmoq orasidan qaraydi
Shundan kelib chiqib tarjimani quyidagicha amalga oshirish mumkin:	
<i>Ясно он никогда не обдумывал этого вопроса, но смутно ему представлялось, что жена давно догадывается, что он не верен ей, смотри на это сквозь пальцы</i>	
Tarjimon: Bu narsa ustida u hech mahal durustroq o'ylab ko'rgan bo'lmasa hamki, uning vafosizligini xotini qachonlardan beri payqab yurganligini, lekin bunga parvo qilmaganligini sal-pal sezardi.	Bizniki: U bu haqda o'ylab ko'rmagani aniq, biroq xotini erining qing'ir yurishini qachonlardan beri payqab, bunga ko'z yumayotganligini zo'rg'a tasavvur qildi.

XULOSA

Xulosa o'rnida, Sanjar Siddiqning tarjimada ro'y beradigan yanglishlarni uchga ajratishini esga olamiz:


“Birinchil xil xatolar – bilimsizlikdan, tilni yaxshi bilmaslik hamda so'zlarning o'rniga qarab turli ma'noda kelishini anglab yetmaslik natijasidir.

Ikkinchi xil xatolar – tildagi sinonimlardan, tilning lug'at boyligidan xabarsizlik, ya'ni har bir tilning o'ziga xos iboralarining ichki mazmunidan begonalik natijasida va nihoyat:

Uchinchi xil xatolar – jumla va tarkiblarni o'girishdagi loqaydlikdan kelib chiqadi.”²¹

Bu xil xatolar evfemik va disfemik birliklarning almashinuviga olib kelishi, natijada manba tili pragmatik ruhining tarjima tilida aks etmasligiga sabab bo'ladi.

Umuman olganda, har bir tilning o'z nutqiy qo'llanilish taraqqiyoti natijasida evfemik/disfemik vaziyat almashinuvi bo'lib, tarjimada ulardan foydalanishga ehtiyotsizlik qilish, o'quvchi psixologik tasavvurida noto'g'ri kartina chizish, milliy ruhni o'zgartirishga haqimiz yo'q. Shu ma'noda iks-femik birlilarning tarjimasi “O'tgan kunlar” asari “Anna Karenina” asaridan ko'ra samaraliroq bo'lganligini xulosa qilish mumkin.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

²¹ Ўзбекистонда бадий таржима тарихи. С.Мамажонов тахрири остида. – Тошкент, Фан, 1985. – Б. 34. – 176 б.

1. Allan, Burridge 1988 — Allan K., Burridge K. Euphemism, dysphemism and cross-variantal synonymy. La Trobe working papers in linguistics. 1988, (1): 1–16.
2. «Тафаккур жавҳари». Тошкент, «Фан» нашриёти. 2010 (Тўпловчи ва сўз боши муаллифи, ф.ф.д. И.М.Фаниев) <https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/lev-tolstoy-anna-karenina-ostiga-chizilgan-parchalar.html>
3. Allan, Burridge 2006 — Allan K., Burridge K. Forbidden words: Taboo and the censoring of language. Cambridge: Cambridge University Press, 2006.
4. Choriyeva, Muxlisa Jumamurodovna “O‘tkan kunlar” romanining tarjima variantlarida milliylik ifodasi va o‘girmalardagi tafovut va o‘xshashliklar // ORIENSS. 2021. № Special Issue 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-tkan-kunlar-romanining-tarjima-variantlarida-milliylik-ifodasi-va-o-girmalardagi-tafovut-va-o-xshashliklar>
5. The QPB Encyclopedia of Word and Phrase Origin. Robert Hednrickson. Facts on File.
6. Баландина М.И. Проблема перевода аргю и дисфемизмов в двуязычной ситуации. Автореф...дисс. канд. фил. наук. 10.02.20. — Москва, 2000. — С.28. <https://cheloveknauka.com/problema-perevoda-argo-i-disfemizmov-v-dvuyazychnoy-situatsii>
7. Кадилова Х.Б. Классификация по структуре формы эвфемизмов в произведениях Абдуллы Кадири // Вестник науки и образования. 2020. №8-1 (86). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/klassifikatsiya-po-strukture-formy-evfemizmov-v-proizvedeniyah-abdully-kadiri>
8. Кадилова, Х. 2021. Проблемы перемены эвфемизмов и дисфемизмов в художественном переводе. // ELMİ İŞ beynəlxalq elmi jurnal. — AZƏRBAYCAN RESPUBLİKASI, Baku. Volume: 15, Issue: 10; St: 17-22. DOI: <https://www.doi.org/10.36719/2663-4619/71/17-22>
9. Комиссаров В.Н. Теория переводов (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. — М.: Высш.шк., 1990. — 253 с.
10. Маматов А., Болтева Б. Фразеологик бирликларнинг лингвомаданият ва семантик-прагматик тадқиқи. Монография. — Тошкент: 2018.
11. Маҳмуд Саттор. Ўзбекнинг гапи қизиқ. — Тошкент: Тафаккур қаноти, 2011. — 148 б.
12. Мораева А.В., Грекова О.М. Особенности и трудности перевода эвфемизмов (на материале новостных статей BBC). // Научный результат. Вопросы теоретической и прикладной лингвистики. 2018. Т. 4, №4. С.90-102. DOI: 10.18413/2313-8912-2018-4-4-0-10
13. Пестова М.С. Эмотивность и оценочность как основные компоненты коннотации дисфемистичных фразеологических единиц, построенных на гиперболе, в английском и русском языках. <https://cyberleninka.ru/article/n/emotivnost-i-otsenochnost-kak-osnovnye-komponenty-konnotatsii-disfemistichnyh-frazeologicheskikh-edinit-postroennyh-na-giperbole-v/viewer>
14. Резанова А.Н. Дисфемия в английском языке: семантические механизмы и прагматические функции: Автореф. дис. ... канд. филол. наук — СПб., 2008. — С. 8-9.
15. Толстой Л. Анна Каренина: роман. Лев Толстой / Рус тилидан Мирзакалон Исмоилий таржимаси. Биринчи китоб. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. — 704 б. https://fileskachat.com/view/96397_e8f4b32d6836c2053efde588ee38826c.html
16. Ўзбекистонда бадиий таржима тарихи. С.Мамажонов таҳрири остида. — Тошкент, Фан, 1985. — Б. 34. — 176 б.
- Фомина Т.А., Дружинин А.С. Контекстуально обусловленное номинативное варьирование на оси эвфемия/дисфемия. Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. 2023, 20 (1): 137–155. <https://doi.org/10.21638/spbu09.2023.108>